Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekturodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekturodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

O'QUV JARAYONI ISHTIROKCHILARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLARNING BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Achilov Obid Muzrobovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Beruniy, Alisher Navoiy va Hoja Alouddin Attor kabi alomatlarning pedagogik qarashlari hamda ularning qadriyatli munosabatni shakllantirish borasidagi g'oyalari tahlil etiladi. Mutafakkirlar merosida ma'naviyat, axloq, ota-ona va farzand mas'uliyati, insoniy fazilatlarining ustuvorligi, jamiyat barqarorligi uchun tarbiyaning ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotda mazkur qarashlarning bugungi boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiqi, ularning o'quvchilar shaxsini barkamol inson qilib shakllantirishdagi metodologik asoslari ko'rib chiqiladi. Shu orqali qadriyatli munosabatni tarbiyalashda tarixiy-pedagogik merosning dolzarbligi va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, qadriyatli munosabat, Alouddin Attor, Alisher Navoiy, Forobiy, Beruniy, milliy-pedagogik asoslar, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat, metodologiya, yosh avlod tarbiyasi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical views of Eastern thinkers – Al-Farabi, Al-Biruni, Alisher Navoi, and Khwaja Alauddin Attar – as well as their ideas on cultivating value-based relationships. In the heritage of these thinkers, the importance of moral education, parental and child responsibility, the priority of human virtues, and the role of education in maintaining societal stability are extensively highlighted. The study examines the application of these perspectives in the contemporary primary education process and their methodological foundations for shaping students into well-rounded individuals. This demonstrates the relevance and practical significance of historical-pedagogical heritage in fostering value-based relationships.

Key words: Eastern thinkers, value-based relationships, Khwaja Alauddin Attar, Alisher Navoi, Al-Farabi, Al-Biruni, national-pedagogical foundations, education, primary education, spirituality, methodology, upbringing of the younger generation.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические взгляды восточных мыслителей – Фароби, Бируни, Алишера Навои и Ходжи Алауддина Аттар, а также их идеи формирования ценностных отношений. В наследии этих мыслителей подробно рассматривается значимость воспитания нравственности, ответственности родителей и детей, приоритет человеческих качеств и значение воспитания для стабильности общества. В исследовании рассматривается применение этих взглядов в современном процессе начального образования, а также методологические основы формирования личности учащегося как гармоничной личности. Через это подчеркивается актуальность и практическая значимость историко-педагогического наследия в воспитании ценностных отношений.

Ключевые слова: восточные мыслители, ценностные отношения, Ходжа Алауддин Аттар, Алишер Навои, Фароби, Бируни, национально-педагогические основы, воспитание, начальное образование, духовность, методология, воспитание молодого поколения.

KIRISH

Dunyo bo'yicha zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri shaxsni tarbiyalashdan iboratdir, zero ta'lim sohasida respublikamiz miqyosida olib borilayotgan negizli islohotlarning zamiridagi tub mazmun ham aynan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish va ta'lim sifatini dunyo standartlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadini nazarda tutuvchi asosiy vazifalarni tashkil etadi.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli¹ qarorining 1-ilovasida qayd etilishicha, "bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llashga doir ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda"^[1]. Binobarin, "shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib bormoqda"^[3].

Kun tartibiga qo'yilgan mazkur asosiy masalaning yechimi ta'lim sohasining barcha tarmoqlari, yo'nalishlari va bo'g'inlarini qamrab oladi, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning uzluksiz hamda o'zaro uyg'un tarzda olib borilishini taqozo etadi. Zero, tarbiya muammolariga bag'ishlangan yana bir muhim tarixiy hujjatda tarbiya va ta'limning "bir-biridan ajratib bo'lmasligi", "ushbu ikki jarayon o'zaro uyg'un va uzluksiz asosda tashkil etilgandagina" yuksak intellektual hamda axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega, zukko, ruhan va jismonan barkamol, keng dunyoqarashli, teran tafakkurli, zamonaviy kasb-hunar egallagan vatanparvar avlodni voyaga yetkazish mumkinligi alohida ta'kidlab o'tiladi^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim va tarbiyaning yagona maqsad yo'lida tashkil etiladigan, yaxlit, bir-birisiz mukammal bo'la olmaydigan hamda bir-birini to'ldiradigan jarayonlar ekanligini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli² qarorida ham ko'rish mumkin. Mazkur hujjatda "Tarbiya" fanini joriy etish orqali erishilishi kutilgan natijalar ko'rsatib o'tiladi. Xususan, "o'quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish", "o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni, ilmiy dunyoqarash hamda global tafakkur yuritish kompetensiyalarini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish" kabi didaktik maqsadlar bilan uyg'un holda "o'quvchilarni jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish" singari ijtimoiy va pedagogik maqsadlar ham ko'zda tutiladi^[1].

Yuqorida keltirib o'tilgan asosiy vazifalar doirasida milliy ta'lim tizimimiz oldida turgan muhim masalalardan biri o'quvchilarning individualligini tarbiyalash, ularning ochilmagan imkoniyatlarini hamda kreativ potensialini yuzaga chiqarish, pirovard natijada esa erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkur yurituvchi, ijtimoiy va ta'limiy sharoitlarga moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bola ushbu jarayonda tengdoshlari, ota-onalari va ustozlari bilan doimiy muloqotga kirishadi. Muloqot esa bilish fenomenining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida bola shaxsiga ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylanadi. Binobarin, o'quvchi o'z oldiga maqsad qo'yish, bu yo'lda bajariladigan vazifalarni rejalashtirish, o'z shaxsiga oid muammolarni mustaqil hal etish, shuningdek, o'z ta'lim trayektoriyasini mustaqil belgilash kabi ko'nikma va tajribalarni bosqichma-bosqich o'zlashtira boradi. Umumiy tarzda aytganda, ta'lim tizimida kechadigan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarning mazmunini mufassal va sodda shaklda quyidagicha ifodalash mumkin: "Maktab o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini mustaqil tashkil eta olishlari va bu borada tajriba orttira borishlari, shaxsiy mas'uliyatni his etishlari, ya'ni eng muhim kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun dastlabki poydevor bo'lib xizmat qilishi kerak"^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks empirik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, anonim so'rovnoma, yarim strukturaviy suhbat hamda pedagogik tajriba-sinov orqali olindi. Kuzatuvlar davomida "o'qituvchi+o'quvchi" va "o'quvchi+o'quvchi" o'rtasidagi muloqot faolligi, o'zaro hamkorlik darajasi va bilish faoliyatidagi namoyonlar qayd etildi. So'rovnoma va suhbatlar yordamida o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi psixologik holati hamda muloqotga nisbatan munosabati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, mavjud pedagogik holatlarning bilish faolligiga ta'siri baholandi.

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4885018>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4885018>

TAHLIL VA NATIJALAR

Inobatga olish lozimki, olim mazkur o'rinda ta'lim tizimidagi dastlabki bo'g'inlardan birini – boshlang'ich ta'limni nazarda tutgan. Biroq L. Vigotskiy nazarda tutgan vazifalarning bajarilishi darajasiga va erishiladigan pirovard natijaga ta'sir etuvchi qator faktorlar ham mavjud. Xususan:

- ilmiy-ijodiy va kreativ muhit;
- “o'quvchi + o'quvchi”, “o'qituvchi + o'quvchi” shaklidagi munosabatlar;
- o'zaro kommunikativlikning erkinligi;
- ta'limiy-kommunikativ sharoitlarning rivojlanganligi va shu kabilar ^[5].

Keltirib o'tilgan faktorlarning barchasi o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni, o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotlarning erkinligini, muhitning ijodiylikni, munosabatlarning zo'riqishsiz, o'qituvchi “diktaturasini” aralashmagan holda, erkin va demokratik, insonparvarlik tamoyili asosida tashkil etilishini nazarda tutadi ^[6].

Biroq ta'lim va tarbiya shunday jarayonki, unda bolaning individualligi, ulg'aygan muhiti va, ayniqsa, yoshi muhim faktor hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda – jahonning ilg'or mamlakatlari singari – ta'lim va tarbiya jarayonlariga qo'yiladigan talablar hamda ushbu jarayonlarning natijalarini tashxislash va bashorat qilishda qat'iy toifalashtirishga amal qilinadi. Bola ta'limi va tarbiyasining har bir qirrasini, egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarning har bir elementi ta'limning muayyan davri uchun rejalashtiriladi. Ya'ni, masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining O'zbekiston Respublikasi DTSda nazarda tutilgan bilim, malaka, ko'nikma, kompetensiyalar va zarur shaxsiy-psixologik hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishi uchun ularning nafaqat didaktik jihatdan, balki ijtimoiy va pedagogik jihatlardan ham muayyan talablarga javob berishi lozimligi muhim me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan ^[7].

Mazkur hujjatda keltirilgan asosiy talablar orasida bevosita ushbu tadqiqot ishi mavzusiga muvofiq keladiganlari quyidagilardan iborat:

- bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;
- o'zining va atrofdagilarning xulqi hamda xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish;
- kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;
- bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;
- o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari hamda qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;
- ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;
- xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;
- o'zini o'zi baholashga o'rgatish;
- faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish;
- tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish ^[7].

Biz asoslamoqchi bo'lgan xulosa shundan iboratki, kichik yoshli o'quvchilarda o'quv-bilish sifatlari va kompetensiyalarini rivojlantirish, umuman olganda esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ilg'or pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari bilan bir qatorda tarbiya jarayonini tashkil etuvchi elementlarning ham o'rni beqiyosdir. Jumladan, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida kechadigan rasmiy va norasmiy munosabatlarning tarbiyaviyligi, axloqiyliigi, milliy pedagogik qadriyatlarga asoslanganligi kabi faktorlarning ahamiyati yuksak bo'lib, quyidagi mulohazalarimizda mazkur masalalarga batafsil to'xtalib o'tiladi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, o'quvchilar o'rtasida hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro ta'limiy va shaxsiy munosabatlarning bola shaxsini rivojlantirishi masalasi mamlakatimiz hamda xorijlik ko'plab mutaxassis va olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Xususan, taniqli olim E. G'oziyev ishlarida ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotga kirishib, nafaqat ta'lim muassasasida kechadigan jarayonlar doirasidagina, balki kundalik voqealarga munosabat bildirish, atrof-muhitda kuzatiladigan jarayon va hodisalarni tahlil etish natijasida ham axborot, bilim va ma'lumotlar olishlari maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv shaxs rivojlanishining qiziqarli hamda muloqotga kirishuvchi har ikki tomon uchun ham samarali ekanligi bilan izohlanadi ^[8]. Shuningdek, Sh. O'. Nurullayevaning



ishlarida “o’quv-tarbiya jarayonida hayotiy misollar, ko’rsatmali qurollar, amaliy ijro, hikoya qilish, suhbat va o’zaro muloqot usullaridan keng foydalanilganligi” haqidagi fikrlar ham uchraydi ^[9].

O’rta asrlarning mashhur pedagog olimi Yan Komenskiy “bolani avval hissiy bilishga, so’ngra aqliy bilishga o’rgatish lozim, bunday o’qitish jarayonini hissiy idrokdan boshlash kerak, hissiy idrok esa ko’rish, anglash va taassurotlarni boshqalar bilan o’rtoqlashishdan boshlanadi”, deb yozgan edi ^[9].

Ushbu tadqiqot ishi doirasida o’quv jarayonida ta’lim oluvchilarning o’zaro munosabatlari, kommunikativ muloqotga kirish faolligi, “o’qituvchi + o’quvchi” shaklidagi munosabatlarning teng huquqliligi ijodiy va tadqiqotchilik muhitini yaratishdagi muhim omil ekanligi, shuningdek, o’qitishning interfaol (“bahs-munozara”, “kommunikativ muhokama” va shu kabi) usullarini joriy etishda ta’lim oluvchilarning faolligi va refleksivligi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan tadqiqot ishlari ^[2] ham e’tiborlidir. Ushbu jarayonlar ta’lim oluvchilarda mulohaza yuritish, umumlashtirish, muammoni nostandart yondashuv asosida hal etish, evristik yechim topish, xulosalar chiqarish hamda o’z fikrini ravon ifoda etish kabi ta’limiy-didaktik sifatlar bilan bir qatorda bahs madaniyati, opponentning fikrini tinglash va hurmat qilish, dalillarni axloq va odob me’yorlari doirasida bayon etish singari tarbiyaviy-pedagogik ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi-olim A. Abdusamatov fikriga ko’ra, mo’tadil tashkil etilgan o’quv jarayonida o’qituvchining metodik jihatdan yetarli darajada tayyor bo’lmasligi, o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlarning me’yoriy hujjatlarda belgilangan tamoyillarga to’liq amal qilinmasligi, ya’ni o’quv jarayonida teng huquqlilik, insonparvarlik, erkinlik va demokratiya tamoyillarining yetarli darajada ta’minlanmasligi pedagogik vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Bunday vaziyatlar esa o’quv jarayoni uchun ajratilgan vaqtning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Tadqiqotchining o’rganishlariga ko’ra, hatto eng mukammal tashkil etilgan o’quv jarayonida ham o’rtacha 8 % miqdoridagi (ayrim hollarda bundan ham ko’proq) vaqt pedagogik vaziyatlarni hal etishga sarflanadi ^[4].

Muhokama. Tadqiqotchining fikrlarini tahlil etish shundan dalolat beradiki, agar o’quv jarayonida o’qituvchi metodik jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo’lsa, sinfda o’quv jarayoni ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlar me’yoriy bo’lsa va milliy ta’lim tizimida joriy etilgan tamoyillarga to’liq amal qilinsa, pedagogik vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimoli minimal darajada bo’ladi. Bu esa o’quv materialini o’zlashtirish uchun rejalashtirilgan vaqtdan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Demak, bolani shaxs sifatida shakllantirish, unda o’quv-bilish sifatlarini rivojlantirish hamda pirovardida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o’quv jarayoni ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlar muhim rol o’ynaydi. Tadqiqot ishining mazkur bo’limi yakunida quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bolada shaxsni shakllantirish va uni uzluksiz rivojlantirish bo’lib, bunda ta’lim mazmunini tashkil etuvchi komponentlarning ta’limiy-didaktik va tarbiyaviy-pedagogik aspektlari bir-birini to’ldiruvchi, biri boshqasiz mukammal bo’la olmaydigan xususiyatga ega.

O’quv jarayonida “o’qituvchi + o’quvchi”, “o’quvchi + o’quvchi” shaklidagi munosabatlarda erkinlik, teng huquqlilik, demokratiya, insonparvarlik va kommunikativlik tamoyillarining ustuvorligini ta’minlash orqali bir qator didaktik hamda tarbiyaviy muammolarni hal etish imkoniyatlari yuzaga chiqariladi. Xususan:

- o’quvchilarda masalaga mustaqil yondashish, o’z fikrini aniq, qisqa va lo’nda bayon etish, uni dalillar bilan asoslash, tengdoshlari fikrini refleksiv-tanqidiy tahlil qilish, o’z pozitsiyasini himoya etish kabi ta’limiy-didaktik ko’nikma va malakalar shakllanadi;
- boshqalar fikrini hurmat qilish, aksilargumentlarni odob-axloq me’yorlari doirasida bayon etish, bahs-munozara madaniyatiga rioya qilish kabi tarbiyaviy sifatlar qaror topadi;
- ta’lim muhiti ijodiy va interfaol xususiyat kasb etib, o’quv materialini o’zlashtirish uchun rejalashtirilgan vaqtdan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi;
- muloqotga kam kirishadigan o’quvchilarni jamoaga jalb etish va faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’rganilgan va tahlil etilgan barcha manbalarda shaxslar (o’quvchilar) o’rtasida qadriyatli munosabatlarni qaror toptirishning muhim sharti sifatida o’zaro muloqotlar hamda ushbu muloqotlarning insoniy fazilatlariga asoslanishi alohida ta’kidlab o’tilgan. O’quvchilararo muloqotning asosiy shakli nutq bo’lib, muloqotga kirishish, suhbatdoshni tinglash, o’z taassurotlarini noverbal tarzda namoyon etish orqali uni rag’batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirishning samarali va sodda usuli sifatida “fozillar davrasida bo’lish”, “turli toifaga mansub shaxslar bilan muloqotga kirishish”, “ilm egalari bilan ko’proq muloqotda bo’lish”, “bilimli kishilar majlisida ishtirok etish”, “ko’p o’qish va muntazam mutolaa qilish” kabi mashg’ulotlar tavsiya etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ЎзР ВМнинг 06-07-2020-йилдаги 422-сон “Умумий ўрта таълим муассасаларида “тарбия” фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, 3-боб, 12- ва 13-пунктлар.
2. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М., 1991.
3. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. – М., 2002.
4. Видинеев Н. В. Природа интеллектуальных способностей человека. – М.: Наука, 1991.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019-йил 31-декабрдаги 1059-сон “Ўзлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиqlаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
6. Алланиязов А. Б. Ўқувчиларда қадриятли муносабатлар тажрибасини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – 2024-йил.
7. Saussure, F. de. Course in General Linguistics. – New York: McGraw-Hill, 2011. – 350 p.
8. Peirce, C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. – Harvard University Press, 2018. – 540 p.
9. Chandler, D. Semiotics: The Basics. – London: Routledge, 2017. – 298 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.